

## Belgilab berilgan vazifalar ijrosi yuzasidan 2023-yilning 2-choragida amalga oshirilgan ishlar

Masofaviy tarzda, videoaloqa orqali o'tkazilgan kengaytirilgan Kengash yig'ilishini boshqarma boshlig'i A.Tashnazarov ochib berdi va yig'ilish kun tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirib o'tdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 28- yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini «Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi» doirasida tizim oldiga belgilab berilgan topshiriqlarni so'zsiz, sifatli va o'z muddatida ijrosini ta'minlash borasida 2023- yilning 2-choragida amalga oshirilgan ishlar hamda statistika organlari oldida turgan kelgusidagi ustuvor vazifalar haqida gapirib o'tdi.

Shuningdek, Statistika dasturi doirasida boshqarma va tuman (shahar) statistika bo'limlari tomonidan 2023- yilning 2-choragida amalga oshirilgan ishlar, pirovardida ishlab chiqilgan tahliliy-statistik ma'lumotlarni keltirib o'tdi.

Jumladan, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilning yanvar-iyun oylarida Navoiy viloyatining yalpi hududiy mahsuloti hajmi joriy narxlarda **36 242,5** mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022-yilning mos davri bilan taqqoslaganda **4,6** foizga o'sdi.

Shuningdek, joriy yilning yanvar-iyun oylari davomida, viloyatda iste'mol narxlari indeksi **8,8** foizni tashkil etdi. Umumiy hisobda iste'mol sektoridagi oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining o'rtacha o'sish sur'ati **10,4** foizni, nooziq-ovqat mahsulotlar **7,6** foizni va xizmatlar tariflarining o'sish sur'ati **7,6** foizni tashkil etdi. Shu bilan birga, 2023- yilning yanvar-iyun oylari davomida iste'mol narxlari darajasining o'rtacha oylik o'sish sur'ati - **0,3 foizga** teng bo'ldi.

Viloyat korxonalarini tomonidan 2023-yilning yanvar-iyun oylarida **47,4** trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi indeksi **104,8** foizni tashkil etdi.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi **7,1** trln. so'mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **103,4** foizga yetdi.

2023- yilning yanvar-iyun oylarida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmida 2022- yilning mos davriga nisbatan o'sish kuzatildi (**104,6** foiz). Viloyatda jami **3,0** trln. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati **107,2** foizga teng bo'ldi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni 2023- yilning 1- iyul holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) **28 049** tani tashkil etib, ulardan **22 239** tasi yoki **79,3** foizi faoliyat ko'rsatmoqda. 2023- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatda **2 260** ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa 2022- yilning mos davriga nisbatan **138** taga kam.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilning yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **5,2** trln. so'mni, 2022- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **109,7** foizni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi **4,8** trln. so'mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **105,9** foizga oshdi. Viloyatning tashqi savdo aylanmasi 2023- yilning yanvar-iyun oylarida **601,7** mln. AQSH dollarini, jumladan eksport **292,9** mln. AQSH dollarini va import **308,8** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilning 1-iyul holatiga viloyat bo'yicha doimiy aholi soni **1 065,3** ming kishini tashkil etib, yil boshidan **10,0** ming kishiga yoki **100,9** foizga o'sdi.

Yig'ilishda, Navoiy viloyati statistika boshqarmasi va bo'limlarida 2023- yil 2- chorak davomida amalga oshirilgan ishlar hamda kelgusida statistika faoliyatini tashkil etish yuzasidan tizim oldiga belgilab berilgan vazifalarning ijrosi holati, hisobot va ijro intizomini mustahkamlash borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar samaradorligi muhokama etildi.